

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERISTETI**

“INNOVATSION TA’LIM”

KAFEDRASI

Qo‘lyozma huquqida
UDK: 371:6.01(575.1)

SHARIPOV BEGZOD DILMURODOVICH

**PROFESSIONAL TA’LIM MUASSASALARINI METODIK
TA’MINLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH VA
AVTOMATLASHTIRISH.**

**70112401 – Professional ta’lim nazariyasi va metodikasi(iqtisodiyot)
mutaxassisligi bo‘yicha**

magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan


D I S S Y E R T A S I Y A

**Ilmiy rahbar:
Ped.f.d. M.F.Xakimova**

TOSHKENT – 2023

Magistrlik dissertatsiya ishi "Innovatsion ta'lim" kafedrasida dastlabki himoyadan o'tgan.

35 -sonli bayonnoma " 28 " aprel 2023 y.



Kafedra mudiri: Xakimova M.F

Xakimova M.F " 25 " 05 2023 y
imzo

Ilmiy rahbar Xakimova M.F,

Xakimova M.F " 25 " 05 2023 y
imzo

Talaba: Sharipov B.D,

Sharipov B.D " 25 " 05 2023 y
imzo

Dissertatsiya Raqamli iqtisodiyot fakultetida 2023 yil " 25 " may
№ 3 raqami bilan ro'yxatga olingan.

ANNOTATSIYA

Professional ta'lim muassasalarini metodik ta'minlash bugungi kunda tizimidagi dolzarb mavzulardan biridir. Shu bois tadqiqot davomida mavzu doirasida atroflicha ish olib bordik. Jumladan mavzuga oid boshqa tadqiqot ishlari, mahalliy va xorijiy olimlar takliflari, ilmiy maqolalari hamda mavzuga oid mahalliy me'yoriy xujjatlarni o'rganib chiqib, adabiyotlar sharhi tayyorladik. Ilmiy ishining amaliy ahamiyatini oshirish uchun, professional ta'lim tizimidagi muassasalar jumladan Pedagogik innovatsiyalar instituti faoliyatida pedagoglarni metodik ta'minlash holati va ular bilan ishlash qay darajada amalga oshirilayotganligini ma'lumotlar asosida o'rgandik. Undan tashqari Rossiya, Qozog'iston va Germaniya davlatlarining professional ta'lim tizimining bo'yicha tajribasi bilan ham tanishib chiqdik va taklif va tavsiyalar ishlab tayyorladik.

***Tayanch so'zlar:** Kasb, Ta'lim standarti, O'quv yili, O'quv vaqti, Malaka talablari, O'quv rejasi, Ishchi o'quv rejasi, O'quv jarayonining grafigi, Mustaqil ta'lim, Kompetensiya, Kvalifikatsiya, Kasb standarti, Ta'lim dasturi, Davlat ta'lim dasturlari, O'quv rejasi, O'quv dasturi.*

ANNOTATION

Methodical provision of professional educational institutions is one of the topical topics in the system today. Therefore, during the research, we carried out extensive work within the scope of the topic. Among other things, we prepared a literature review after studying other research works on the topic, views of local and foreign scientists, scientific articles, and local normative documents on the topic. In order to increase the practical importance of scientific work, we studied the state of methodical provision of pedagogues in the activities of institutions of the professional education system, including the Institute of Pedagogical Innovations, Management of Professional Education and Retraining of Pedagogical Personnel, and the extent to which work with them is carried out. In addition, we got acquainted with the experience of the professional education system of Russia, Kazakhstan and Armenia. Based on the studied and analyzed data, we have developed scientifically and practically based conclusions, sugGESTions and recommendations on methodical support measures.

***Keywords:** Profession, Education Standard, Academic Year, Study Time, Qualification Requirements, Curriculum, Work Curriculum, Curriculum Chart, Sample Study curriculum, working curriculum of the subject, general competence, professional competences, calendar-subject plan, Qualification, Professional standard, Educational program, State educational programs, Curriculum, Curriculum.*

MUNDARIJA

Annotatsiya	3
Mundarija	4
Keltirilgan jadvallar ro'yxati	5
Keltirilgan qisqartmalar	6

I- BOB KIRISH

1	Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi	9
2	Tadqiqot maqsadi va vazifalari	10
3	Tadqiqotning asosiy muammolari va savollari	11
4	Tadqiqot ob'ekti va predmeti	12
5	Tadqiqot natijalarining ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyati	14
6	Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi	16

II- BOB. ADABIYOTLAR SHARXI

7	Kirish	17
8	Mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlar sharxi	18
9	Mavzuga oid mahalliy me'yoriy-huquqiy xujjatlar sharxi	19
10	Xulosa	25

III-BOB. TADQIQOT METODOLOGIYASI

11	Tadqiqot dizayni	50
12	Ma'lumotlarni to'plash jarayoni	50
13	Tahlil uchun qo'llaniladigan usullar	51
14	Tadqiqotni o'tkazish uchun zarur sharoitlar	51
15	Tadqiqot jarayonida kutilayotgan muammolar va ularning yechimi	51
16	Tadqiqotdan kutilayotgan ilmiy va amaliy natijalar	51

IV-BOB. TAXLIL VA NATIJALAR

17	Professional ta'lim tizimini metodik ta'minlash tizimini takomillashtirishdagi muammolari hamda Pedagogik innovasiyalar instituti misolida tahlili.	52
----	---	----

18	Pedagogik innovasiyalar instituti tomonidan professional ta'lim muassasalridagi pedagoglarni metodik ta'minlash tizimini takomillashtirish bo'yicha muammolar tahlili.	54
----	--	----

19	Tahlillardan olingan natijalar sharhi	58
----	---------------------------------------	----

V-BOB. XULOSA

22	Tadqiqot savoliga tegishli natijalarning qisqacha ifodasi	64
----	---	----

23	Tadqiqotning asosiy taklif va tavsiyalari	65
----	---	----

24	Tadqiqot cheklovlari va kelgusi tadqiqotlar uchun takliflar	67
----	---	----

	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR R O'YXATI	69
--	--	----

KIRISH

2022—2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida professional ta'limni jahon andozalariga mos bo'lgan sifat darajasiga ko'tarish, ish beruvchi talablariga mos bo'lgan raqobatbardosh va xalqaro maydonda tan olinadigan malakali ishchi va mutaxassislarni tayyorlash jarayoniga innovatsion yondoshadigan pedagoglar, ish bilan band bo'lmagan aholini kasbga o'rgatish kurslarining o'qituvchilari va amaliy ta'lim ustalarining faoliyatini samarali tashkil etishga bo'lgan talab ortmoqda¹.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-sentabrdagi qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida” PF-5812-sonli farmoni², O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 15-maydagi “O'zbekiston Respublikasida Kasbiy malakalar, bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish milliy tizimi faoliyatini tashkil etish choralari to'g'risida”gi VMQ-287-son qarori³, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 7-avgustdagi “O'zbekiston Respublikasida uzluksiz boshlang'ich, o'rta va o'rta-maxsus professional ta'lim tizimini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida”gi 466-sonli qarori⁴, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020-yil 2-sentabrdagi “Professional ta'lim muassasalari uchun o'qitish materiallari to'plamlarini yaratishni tashkil etish to'g'risida”gi 465-son buyrug'i, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan “Ta'lim to'g'risidagi” O'RQ-637-son Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 31-dekabrdagi “Malakalarni baholash tizimini tubdan takomillashtirish va mehnat bozorini malakali kadrlar bilan ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-4939-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Professional ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish chora-tadbirlari haqida”gi 2021-yil 29-martdagi

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, 28.01.2022 йилдаги ПФ-60-сон.

² Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, 06.09.2019 йилдаги ПФ-5812-сон.

³ Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, 30.12.2022 йилдаги ПФ-287-сон

⁴ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг қарори, 07.08.2020 йилдаги 466-сон